

**Etikada ahloqiy kategoriyalarining tushunchalari****Raximova Dildora Abzalovna****Fan va texnologiyalar universiteti****“Ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada etika fanida ahloqiy kategoriyalarning tushunchalari, shakllanishi, darslarda o‘zlashtirilishi, qaysi fanlarda qo‘llanilishi, kishilar xatti-xarakatlari, hulq-atvorlarini jamiyat talablari nuqtai-nazaridan ma’qullash yoki qoralash haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yaxshilik, yomonlik, vijdon, burch, adolat, sha’n, or-nomus, iymon, muhabbat, nafrat, hayotning ma’nosi, baxt

Аннотация: В статье дается информация о понятиях моральных категорий в этике, их формировании, освоении на уроках, в каких предметах они используются, а также об одобрении или неодобрении поведения и поступков человека с точки зрения общественных требований.

Ключевые слова: добро, зло, совесть, долг, справедливость, честь, вера, любовь, ненависть, смысл жизни, счастье

Abstract: : This article provides information about the concepts of moral categories in ethics, their formation, mastery in lessons, in which subjects they are used, and the approval or disapproval of human behavior and behavior from the perspective of societal demands.

Keywords: Good, evil, conscience, duty, justice, honor, faith, love, hate, the meaning of life, happiness

Har bir fanning o‘z kategoriyalari bo‘lgani kabi “Etika” fanining ham kategoriyalari mavjud. “Etika” fani kategoriyalari deb jamiyat axloqiy hayotidagi umumiy muhim tomonlarni, xususiyatlar va munosabatlarni inson tomonidan o‘zlashtirish usullarini aks ettiruvchi tushunchalarga aytiladi. “Etika” kategoriyalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega: ular faqat axloqshunoslik sohasida emas, balki boshqa sohalarda ham qo‘llaniladi. Amaliyotda axloqiy faoliyatdan tashqari bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q. «Etika» kategoriyalari bir vaqtning o‘zida boshqa fanlar: siyosiy, iqtisodiy va huquqiy fanlarning ham kategoriyalari hisoblanadi. “Etika”



kategoriyalari - shuningdek, kishilar xatti-xarakatlari, hulq-atvorlarini jamiyat talablari nuqtai-nazaridan ma'qullash yoki qoralash, ya'ni axloqiy baholash xususiyatiga egadir. *Yaxshilik, yomonlik, vijdon, burch, adolat, sha'n, or-nomus, imon, muhabbat, nafrat, hayotning ma'nosi, baxt* kategoriyalari "Etika"ning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Shuningdek, kishilar xatti-harakatlari, hulq-atvorlarini jamiyat talablari nuqtai nazaridan ma'qullash yoki qoralash, ya'ni axloqiy baholash xususiyatiga egadir. «Yaxshilik» va «yomonlik» kategoriyalari ijtimoiy taraqqiyot davomida mazmunan o'zgarib va takomillashib boradi. Shu ma'noda «yaxshilik» va «yomonlik»ni ilk ibtidoiy tushunish bilan hozirgi ijtimoiy taraqqiyot bosqichlaridagi tushunish bir-biridan farq qiladi. Ijtimoiy taraqqiyotning ma'lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi «yaxshilik» deb qaralgan hodisa, boshqa bir bosqichda «yovuzlik», yoki «yomonlik», deb baholanishi mumkin. Masalan, quldorlik tuzumi davrida «qul»ni urish, so'kish hatto o'ldirib yuborish mumkin edi. Bu narsa mavjud axloqiy ongga hech ham zid kelmas edi. Hozirchi? Hozirgi zamon axloqiy ongida inson huquqlari va erkinliklariga har qanday tajovuz axloqsizlik yoki «yovuzlik», deb baholanadi. Bu shundan dalolat beradiki, axloqiy kategoriyalar doimo mazmun jihatidan o'zgarib turadi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot hattoki «yaxshilik»ni «yomonlik»ga, «ezgulik»ni esa «yovuzlik»ga aylantirib yuborishi mumkin. Yaxshilik deb tevarak-atrofdagi sodir bo'layotgan hamma voqea, hodisa va vujudga kelayotgan narsalarning insonni e'zozlaydigan, uning manfaat va ehtiyojlarini qondiradigan, axloqiy ideallariga mos keladigan, odamgarchilikning o'sishini har tomonlama ta'minlaydigan, pirovardida baxtli hayot kechirishga xizmat qiladigan barcha ijobiy tomonlarning yig'indisiga aytiladi. Yaxshilik boshqa etika kategoriyalaridan o'zining quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Yaxshilik-inson faoliyatining sababi va natijasiga ko'ra tekshiriladigan hamma muayyan axloqiy normalar tizimi nuqtai nazaridan ijobiy baholashga imkon beradigan ijobiy axloqiy mazmundir,
2. yaxshilik-axloqiy idealga muvofiq keladigan real mavjud axloqiy munosabatlarning ijobiy mazmunidir,
3. yaxshilik-muayyan, aniq tarixiy axloq shaklining barcha ijobiy norma va prinsiplari yig'indisini o'zida jamlagan umumiy idealdir,



4. xatti-harakatning sababiga aylanuvchi axloqiy maqsaddir,

5. yaxshilik- insoniy xususiyat, fazilatdir va h.k.

Yaxshilik kategoriyasi o'zining ko'pqirraligi, keng qamrovligi, axloqiy munosabatlarning universalligi, ya'ni kishilar hayotining barcha jabhalarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun ham u mehnat sohasida – jamiyat manfaatlari yo'lida qilingan ham ijodiy mehnat, siyosat va huquq sohasida – insonparvarlik, adolatparvarlik va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. Yomonlik deb jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, kishilarning axloqiy ideallariga, ular e'zozlaydigan qadriyatlarga zid keladigan, baxtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda axloqiy taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning o'sishiga zid keladigan xatti-harakatlarni o'zida mujassamlashtirgan tushunchalar yig'indisiga aytiladi.

«Yaxshilik» va «yomonlik» o'zaro aloqador va ayni vaqtda bir-birini inkor etuvchi kategoriyalardir. Yaxshilik va yomonlik to'g'risida hadislarda shunday deyilgan: *«Yaxshilaringiz hushxulq bo'lib, kishilarga yon beruvchi, ya'ni atrofida yaxshi hayot kechirishga imkon beruvchi kishilardir. YOmonlaringiz mahmadona, dilozor, kishilar rohatini buzuvchi kishilardir».*

«Kimga yaxshilik qilay, - deb so'ragan odamga uch marta onangga deb, to'rtinchisida otangga deb aytganlar, ya'ni yaxshilikni onangga, onangga, onangga, so'ngra otangga qil dedilar».

«Adolat» kategoriyasi faqat etika kategoriyasigina bo'lib qolmay, bir vaqtning o'zida huquqiy kategoriya hamdir.

«Adolat» kategoriyasining ichki mazmunini, uning asosiy ijtimoiy mezonlariga e'tibor berish bo'lg'usi huquqshunoslar uchun benihoyat muhimdir. «Adolat» kategoriyasining boshqa axloqiy kategoriyalardan farqi shundaki, u ayniqsa huquqshunoslik bilan chambarchas bog'liqdir, ma'lum darajada u axloqshunoslik va huquqshunoslikni bog'lovchi ko'priq, asos rolini o'taydi. Biroq u avvalambor axloqiy kategoriyadir. Huquqshunoslik fani mazkur axloqiy kategoriyani qonunlar asosida oladi, uni kishilar munosabatida qaror topshini ta'minlashga xizmat qiladi. Huquq fanining adolatni qaror topishi uchun sa'y-harakati u huquqiy kategoriya degan



xulosaga ham olib keladi. «Or-nomus» va «sha'n» kategoriyalari ham o'z ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra yuksak axloqiy fazilatlarni aks ettiradi. Or-nomus va sha'n kategoriyalari ham o'z ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra yuksak axloqiy fazilatlarni aks ettiradi.

«Or-nomus» va «sha'n» haqidagi dastlabki tasavvurlar ibtidoiy-jamoa tuzumining oxirlarida shakllangan bo'lib, inson axloqiy kamolotining oliy bir ko'rinishi sifatida jamoa a'zolari oldidagi shaxsiy qadr-qimmat, ijtimoiy obro'yini baholash, anglash orqali namoyon bo'ladi. Etika fani tarixida «or-nomus» va «sha'n» kategoriyalariga birinchi bor Qadimgi Rim stoitsizm falsafasida katta e'tibor berildi. Rim stoitsizm falsafasi vakillaridan, ayniqsa, Lutsiy Anney Seneka, Mark Avreliy va Epiktet «or-nomus» va «sha'n» kategoriyalarini muntazam tadqiq qilishdi. Ular hatto kishi o'limini or-nomusdan va sha'nning oyoq-osti qilinishidan afzal ko'rishgan. Or-nomus va sha'n kategoriyalari Markaziy Osiyo mutafakkirlari axloqiy ta'limotlarida ham uchraydi. Inson qadr-qimmatini, or-nomusi va sha'ni At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad YAssaviy, Xo'ja Axror, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa o'rta asr Sharq mutafakkirlarining ijodiy merosida alohida o'rin tutadi. Garbda esa «or-nomus» va «sha'n» kategoriyasi Uyg'onish davri mutafakkirlari N.Kopernik, Jordano Bruno, Lorenzo Valla, Erazm Rotterdamskiy, Galileo Galiley va boshqa mutafakkirlar ijodidan keng o'rin olgan. Ayniqsa, O'rta asrlarda ritsarlik or-nomus va sha'ni, u yoki bu unvonga mansublik (lord, graf va hokazolar) alohida ma'naviy fazilatlar bo'lishligini, shaxsiy va oilaviy qadr-qimmatini, or-nomus va sha'nni cheksiz hurmat qilish va qadrlashni axloqiy qoida va prinsip darajasiga ko'tardi. Or-nomus va sha'n kategoriyalarining inson hayotida ustivorligi Pushkin, Lermontov, Dantes, Bayron ijodi va hayotida duel – yakkama-yakka olishuv qiyofasida ham bo'ladi. Amaliy mashg'ulotda or-nomus va sha'n haqida gapirganda milliy istiqlol mafkurasida mazkur kategoriyalarga alohida e'tibor berishini ta'kidlash lozim. Milliy g'urur, milliy qadr-qimmat aynan shunday asoslardir. Davlatimiz sha'ni va or-nomusi – o'zbek halqi tarixiy qadr-qimmatining hayotimizda qaror topshining ma'naviy garovidir. Milliy or-nomus, sha'n va qadr-qimmatni himoya qilmasdan turib milliy mustaqillikni mustahkamlash mumkin emas.



Or-nomus va sha'n har bir kishida shakllangan bo'lishi ijtimoiy ravnaq va ma'naviy poklikning garovidir. Shaxsiy or-nomus va sha'nni kamol toptirilsa jamiyatimizda jinoyatchilik, buzuqchilik, giyohvandlik kabi axloqsizliklar kamayadi. Vijdon kategoriyasi - or-nomus kabi oliy axloqiy fazilatdir. Vijdon o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy-tarixiy fazilat bo'lib, kishining fuqorolik etukligi va ijtimoiy mas'uliyati asosida shakllanadi. «Vijdon amri», «vijdon azobi», «vijdon ovozi» kabi tushunchalar kishining turli xatti-harakatlari va hulqini ijtimoiy foyda yoki zarar nuqtai-nazaridan baholashni ifodalaydi.

Vijdon kishida tug'ma xususiyat bo'lmasdan, uni individual-shaxsiy kamoloti, shaxsiy hayotiy taqdiri asosida shakllanadi. Vijdon shu sababli turli kishilarda turli darajada shakllangan bo'ladi.

Vijdon o'z tabiatiga ko'ra ikki tomondan - aqliy va hissiy tomonlardan iborat bo'ladi. Vijdon ijtimoiy aql, ijtimoiy qoidalariga rioya qilish darajasini ifoda etar ekan, u insonda turlicha his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Bu tuyg'ular gohida qoniqish, taskin topish yoki aksincha uyalish, qiynalish, azoblanish shaklida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Rimda vijdon ijtimoiy mohiyatini nazarda tutib «vijdon – bu mingta guvohdir», - deb ham ta'kidlashgan. Vijdon shu ma'noda kishining ijtimoiy mas'uliyatini individual-shaxsiy ifoda etilishidir. Vijdon aynan shu tomonlari bilan o'zining normativ tomonlarini yaqqolroq ko'rsatadi.

Vijdonlilik – bu ijtimoiy burchni anglash va shunga mos xatti-harakatlar qilishdir. Vijdonlilik – bu mas'uliyat hissining shaxs faoliyatida ustivorligidir. Vijdonlilik – inson qarorlarida, harakat yo'nalishlarini tanlashida odamiylikning, insonparvarlikning, mehr-oqibatning ustivorligidir.

Burch kategoriyasi ham vijdon kategoriyasi kabi kishilarda turli darajada kamol topgan bo'ladi. Burch ko'proq shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. U kishida qay darajada mas'uliyat, uyat, or-nomus va sha'n hissi taraqqiy ekanligi bilan bog'liqdir. Burch inson taraqqiyotining yuksak ijtimoiy pog'onalarida tarixan kamol topgandir. Burch – ijtimoiy va shaxsiy ma'naviy qarzdorlikni, ijtimoiy hayotga individual tarzda mansublik va qaramlikning ifodasidir. Burch asosan ikki ko'rinish yoki pog'onada namoyon bo'ladi. Birinchisi – ijtimoiy-tarixiy burch. U milliy ravnaq, milliy madaniyat, vatan oldidagi



mas'uliyat shaklida ko'rinadi.

Shaxsiy individual burch – ikkinchisi bir ko'rinish bo'lib, u ota-ona oldidagi burch, qarindosh-urug' oldidagi burch, aka-uka, opa-singil oldidagi burch, do'stlar oldidagi burch, shuningdek shaxsning umr yo'ldoshi oldidagi burch shaklida namoyon bo'ladi.

Burchning u yoki bu ko'rinishi shaxsning umumiy madaniyati saviyasi, axloqi, vijdonligi va tarbiyasiga bog'liq. Burchning oliy ko'rinishi – ijtimoiy burchga shaxsiy-individual burch rivoji orqali erishiladi. Burchning kasbkor bilan bog'liq ko'rinishini ham alohida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Baxt kategoriyasi ham asosiy axloqiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Baxt haqidagi ilk tushuncha va tasavvurlar ijtimoiy taraqqiyotning birmuncha keyingi davrlarida (quldorlik tuzumi) shakllangan.

Baxtni diniy-mistik va dunyoviy tushunishlar mavjud. Diniy tushunishga binoan haqiqiy baxt – bu xudo marhamatiga ega bo'lish, jamiyatga tushish, deb tushunilgan. Baxtni dunyoviy tushunish kishilarning real turmushlarida farovonlikka, osoyishtalikka, saodatga, ro'shnolikka erishishga qaratilgan individual-shaxsiy tasavvurlariga asoslangandir.

Baxt tushunchasi abstrakt axloqiy tushuncha bo'lsa-da, u konkret hodisalarda ifoda bo'lishlikni taqozo etadi. Baxt deganda, ayrimlar cheksiz mol-mulkga, moddiy boyliklarga ega bo'lishni tushunishsa, ayrimlar esa biron-bir katta lavozimga ega bo'lishni tushunishi mumkin. Baxt tushunchasi shuning uchun shaxsiy-konkretlikni talab qiladi. Ya'ni u yoki bu shaxsning ma'naviy va madaniy saviyasiga funksional ravishda bog'liqdir. Shu ma'noda kim uchundir baxt – bu sihat-salomatlik bo'lsa, kim uchundir baxt – bu sadoqatli do'stlarga, sevimli kasbga ega bo'lishdir.

Insof kategoriyasi metodologik jihatidan falsafiy «me'yor» kategoriyasi bilan bog'liqdir. Insof kategoriyasi ijtimoiy baho asosida shakllanib kishini qator ma'naviy xislatlari – halollik, ezgulik, vijdon, rostgo'ylik, mehr-oqibat, odamgarchilikni o'zida mujassam etadi. Insof kategoriyasi har qanday axloqiy sistema va madaniyatda bo'lavermaydi. Insof kategoriyasi o'zbek milliy axloqiga xos bo'lgan kategoriyadir. Uning roli ijtimoiy hayotda benihoyat kattadir. U yoki bu xatti-harakatda ijtimoiy ko'lamdan, me'yordan chetga chiqish-noinsoflik, demak axloqsizlik hisoblanadi. Bu azaliy axloqiy kategoriya milliy istiqbolimiz shabadasi tufayli hayotimizda yana tiklanmoqda.



Insof kategoriyasi o'z mazmuniga va kishilar hayotida bajaradigan vazifalariga ko'ra insof, sha'n, or-nomus bilan uzviy aloqada turadi. Iymon mazkur kategoriyalar asosida inson ma'naviy dunyoqarashining negizi-e'tiqodni shakllantiradi. Iymon kishida hayotiy ko'nikmalar, taassurotlar, tajriba va tarbiya asosida vujudga keladi va e'tiqod darajasiga ko'tariladi. E'tiqod kishini u yoki bu hodisaga nisbatan bo'lgan hayotiy mavqeini (pozitsiyasini) ifodalaydi. Iymon sobiq markscha-lenincha etikada diniy-mistik kategoriya tarzida baholanar, uning jamiyat hayotidagi roli kamsitilar edi. Natijada iymonsizlik hayotiy normaga aylanib qolgan edi. Xoinlik, sotqinlik, chaqimchilik, adovat, hasad, qabihlik, yolg'onchilik, beburdlik, yovuzlik va hokazo hodisalar iymonsizlik namunasidir. Bunday ma'naviy tuban axloqiy xislatlar aksariyat sovet fuqorolari ongida shakllanib qolgan edi. Buning oqibatida Vatanimizning iymonli va insofli, vijdonli va or-nomusli o'g'il-qizlari quvginga va qatag'onga duchor bo'lishgan edi. Iymon milliy ong, milliy madaniyat va milliy ma'naviyatning ko'zguisidir. Sevgi kategoriyasi inson axloqiy kamolotining eng oliy va ezgu ko'rinishidir. Sevgi o'z mazmuniga ko'ra hissiy va aqliy tomonlarning o'zaro dialektik birligidan iboratdir. Sevgi haqidagi tasavvur insonning tabiatdan tarixiy ajralib chiqishi va ijtimoiy maxluqot qiyofasiga kirishi bilan bog'liqdir. Kishilik jamiyati uchun xos bo'lgan yuksak tuyg'u – sevgi ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. U ikki – biologik va ma'naviy birlashish ehtiyoji o'zaro birligining ma'naviy ifodasidir. Sevgi, sevish va sevilish hissi insonning ma'naviy quvvatidir. Sevgi ezgulik, muruvvat, saxiylilik, jasurlik, botirlik, sadoqat, burch, ishonch va baxt kategoriyalari bilan bog'liqdir. Sevgi axloqiy-ma'naviy hodisa sifatida individual-betakror bo'ladi. Sevish va seva olish qobiliyati har bir kishida o'ziga xos, qaytarilmas xarakterga ega. Biroq ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot sevgi haqida oliy andoza - sevgining obrazli qiyofasini yaratadi. Bu «ideal» tushunchasi orqali ifodalanadi. Ma'naviy taraqqiyot o'z davrining ideali tarzida Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Romeo va Jul'etta, Tohir va Zuhra, Otabek va Kumush obrazlarini keyingi avlodlar uchun yaratdi. Ular chin sevgining namunasi hisoblanadi. «Sevgi» kategoriyasini «ishq» va «muhabbat» kategoriyalaridan farq qilmoq lozim. «Sevgi» va «ishq» kategoriyalari mohiyatan bir-biriga yaqin kategoriyalardir. Biroq ular umumiyroq bo'lgan axloqiy kategoriya «muhabbat» kategoriyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Masalan, sevgi, ishq konkret bir shaxsga nisbatan yaqinlikni, ehtiyojni



ifodalasa, «muhabbat» kategoriyasi kengroq bo'lgan hodisalarni ham ifoda etadi. Masalan, «ona Vatanga muhabbat», «sevimli kasbga nisbatan muhabbat», «onaga va otaga muhabbat, mehr-oqibat, saxovat, hamdardlik, hamnafaslik, manfaatdorlik, bog'liqlik» kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi. Axloqiy kategoriyalar tizimida «halol» va «harom» kategoriyalari alohida o'rin tutadi. O'zbek milliy axloqida mazkur axloqiy kategoriyalar ma'naviyatimizning ustuni hisoblanadi. O'tmish ajdodlarimizning ma'naviy hayotida mazkur kategoriyalar ustivorlik qilgan. «Halol» va «harom» kategoriyalari diniy – mistik tabiatga ega, musulmon axloqininggina tushunchalari degan aqida uydirma ekanligi bugungi ma'naviy poklanish, axloqiy uyg'onish davrida tobora sezilib qolmoqda.

Axloqshunoslikning yana bir asosiy tushunchasi — adolat. Uning ezgulik va yovuzlik hamda yaxshilik va yomonlikdan asosiy farqi shundaki, adolatning o'zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; unda ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat borjoyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Ma'lumki, axloqdagi eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, chunonchi, mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud. Lekin, hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng awalo, o'z zurriyotiga qaratilgan bo'Madi. Odamzod esa o'ziga qondosh-qarindosh bo'lmagan o'zgalarga — qavmdoshlariga ham ushbu hissiyotlarni namoyish etadi. Shunday qilib, axloqning ba'zi unsurlari hayvonlarda ham mavjud, faqat ular insondagidek aqlga emas, tabiiyyatga asoslangan. Buni adolat mezoniy tushunchasida yaqqol ko'rish mumkin. Albatta, hayvonlar uni tushuncha sifatida anglamaydilar, lekin u tabiiyyat tarzida hayvonlar xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Masalan. Afrika savannalarida yoki changalzorlarida qurg'oqchilik mavsumida hayvonlarning suvloqdagi xatti-harakatini olib ko'raylik. Unday paytda suvloq hududida vahshiy hayvonlar, qanchalik och bo'lmasin, o'z o'ljalarga tashlanmaydilar: adolat yuzasidan ularning ham chanqoqlarini qondirishlariga yo'l qo'yib beradilar — barcha hayvonlar bir-birlari tomonidan tashna jonzoqlar sifatida qabul qilinadi. Biroq suvloqdan ma'lum masofa nariga o'tilgach, yana o'sha hayot — kushanda va o'ljaning yashash uchun kurashi boshlanadi. Demak, adolatning ibtidoiy



ko‘rinishini hayvonlarda ham uchratish mumkin ekan. Qizig‘i shundaki, u yakka holda emas, ko‘pchilik hayvonlar-tashna jonzotlar jamoasida ro‘y beradi. Bu hodisa adolat tushunchasining ijtimoiylik xususiyatiga xos ba‘zi holatlar insoniyat jamiyatidan ham ibtidoiyoq ekanini, uning tarixi yanada qadimiyoqligini ko‘rsatadi. Adolatning mezoniylik xususiyati, ayniqsa, huquqda darhol ko‘zga tashlanadi. Huquq vazirligining hatto adliya vazirligi deb atalishi, jinoyatga yarasha jazoni belgilovchi, hukm chiqaruvchi idoralaming odil sud degan nomlar bilan yuritilishi buning dalilidir. Lekin adolatni faqat huquqiy tushuncha sifatida talqin etish to‘g‘ri emas. U, yuqorida aytganimizdek, keng qamrovli axloqiy tushuncha. U nafaqat fuqarolar orasidagi munosabatlarni, balki davlat bilan xalq, jamiyat bilan shaxs o‘rtasidagi aloqalar mezonini ham o‘z ichiga oladi. Xalq orasida ming yillar mobaynida odil podsho idealining yashab kelgani bejiz emas. Deyarli bir yarim asr mobaynida adolatsizlikni, milliy kamsitishni, milliy iftixor hissining oyoqosti qilinishini, begona irodaning zo‘rlab qabul qildirilishi kabi holatlarni boshdan kechirgan xalqimiz, endilikda mustaqillikka erishib, adolatli fuqarolik jamiyati tuzishga kirishdi. Adolat bugungi kunda bizning mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizning mohiyatini anglatuvchi tushunchaga aylanib bormoqda

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz T: O‘zbekiston, 2017 - 484 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar.T.: Muharrir, 2008 y. 4. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
5. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
6. M.Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y.
7. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus “Qobusnoma” T.: “Istiqlol” 1994 y.
8. San’at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y. 8. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
9. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish. T.: 1960 y. 38-bet

